Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QUVASOY SHAHRI ETNOTOPONIMLARINING IZOHLI TAHLILI

Munavarjon Numonjonovich Tojiboyev*
FDU mustaqil izlanuvchi
✉ tojiboyevmunavvarjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Quvasoy shahri hududidagi etnonimlar asosida shakllangan toponimlar etimologik va tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududdagi joy nomlarining kelib chiqishi, ularning ma’no-mazmuni hamda etnik guruhlar bilan bog.liqligi o‘rganiladi. Etnonim toponimlar orqali qadimiy qabilalar, urug‘lar va elatlar izlari aks etgani, bu esa hududning etnik tarkibi va tarixiy rivojlanishini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada toponimlarning shakllanish omillari, ushbu hududda yashovchi xalqalrning urf-odatlari, marosim va an’analari kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hududiy toponimika, tarixiy geografiya va etnolingvistika yo‘nalishlarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar

toponimlar, etnonimlar, etnotoponomika, Bo‘ston, Nayman.

DOI: 10.5281/zenodo.23281794

KIRISH

Tarixni bilish, tarixni sevish uni anglash,undan saboq chiqarish hamda o‘rnak olish insonda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantiradi. Shu sababli bugungi kunda yurtimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yurtboshimizning 2021-yil nashr etilgan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida quyidagi jumlalar “…Ta’kidlash lozimki, Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo‘lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz” deyilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Urug‘ va qabila nomlarini o‘rganish va ularning tarixi, ma’naviy xazinaga qiziqish hamda kelajak avlod uchun qimmatli madaniy meros sifatida saqlash fan va insoniyat uchun birdek dolzarbdir.

ASOSIY QISM

Bizga ma’lumki, etnonimlar biron-bir xalq, elat va millatlarni nomlarini anglatuvchi so‘z hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda,toponimlarda o‘zagida urug‘, qabila, elat kabi ma’nolarni bildirsa, etnotoponimlar hisoblanadi. Etnonimlarni to‘laroq izohlasak, muayyan millat, xalq, elat, qabila, urug‘ vakillari birlashgan guruhlar ma’lum bir jamiyatda birgalikda yashaydi. Qadimgi davrlardan hozirga qadar o‘zbeklar tarkibida qipchoq, jaloyer, kenegas, qo‘ng‘irot, do‘rman, nayman, barlos, minglar, mang‘it kabi yirik qabilalar mavjud bo‘lgan. Shu kabi nomlar etnonimlarni tashkil etadi. Shu tariqa, etnonimlar etnotoponimlarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ya’ni ma’lum bir etnik guruhlar istiqomat qilgan hududlarini ham o‘z qabila va millatlarining nomi bilan atashgan yoki unga qo‘shimchalar kiritib qo‘llashgan.

Quvasoy shahri 1954-yilda tashkil topgan. Shahar markazi Quvasoy shahri. Farg‘ona shahridan janubi-sharq tomonga 22 km masofada joylashgan bo‘lib, Farg‘ona shahri, Quva tumani, Farg‘ona tumani hamda Qirg‘iziston respublikasi bilan chegaradosh. Umumiy yer maydoni 264 km² ni tashkil qiladi.

Aholisi 96,8 ming kishidan ortiq (2022-yilgi hisob-kitoblarga ko‘ra), shu jumladan, shahar aholisi — 42,9 ming kishi (57,6%), qishloq aholisi — 31,6 ming kishi (42,4%). Milliy tarkibga ko‘ra o‘zbeklar 43,5%, tojiklar 29%, qirg‘izlar 11,5%, ruslar 7,9% boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Ma’muriy hududiy tuzilishi jihatidan 36 ta aholi yashash punktlariga bo‘linadi.

Quvasoy shahrida ko‘plab toponimlar mavjud bo‘lsa-da, viloyatning boshqa hududlari singari etnonimga bog‘liq toponimlar kam uchraydi. Etnotoponimlar qatoriga Bo‘ston, Nayman kabi mahallalarni misol keltirsak bo‘ladi.

Bo‘ston mahallasi Quvasoy shahrida joylashgan joy nomlaridan biri hisoblanadi. Bizga ma’lumki, ushbu nom ostida viloyatda juda ko‘plab hududlarda uchraydi. Masalan, Toshloq, Farg‘ona, Rishton, O‘zbekiston tumanlarida shu nomdagi toponimlar fikrimizning isbotidir. Ushbu hududlarda dala tadqiqotlari olib borilganda umumiy jihati etnik jihatdan qirg‘iz millatiga mansub aholi ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, Quvasoy shahridagi izlanishlarimizda ham mahalliy aholi Haydarkon hamda Qizilqiyadan ko‘chib kelganliklarini ta’kidlashdi. Shunigdek, bu hududda hozirgacha qiz olish , ya’ni kelin to‘ylarida asosan o‘z urug‘idan olish saqlanib qolinganligi e’tiborga molikdir. Bundan tashqari, mahalliy aholi deyarli hammasi o‘z urug‘ini bilishlarini aytib o‘tdi[1]. Gubayeva (1983) asarida ham, Farg‘ona- Yozyovon – Quva oralig‘ida yashovchi qirg‘izlarning Bo‘ston (bo‘z to‘nli) urug‘ vakillari keng tarqalgan joylarda shu nomli qishloqlar bor, deb aytib o‘tgan.

1909-yil Farg‘ona shahrida chop etilgan “Farg‘ona viloyatining aholi yashaydigan joylar ro‘yxati” nomli kitobdagi ma’lumotlarga ko‘ra, bu vaqtda Bo‘ston qishloq sifatida Marg‘ilon uyezdining Qo‘qon qishloq volost (bo‘lis)i tarkibiga kirgan bo‘lib, unda jami 257 nafar aholi istiqomat qilgan[2] [3.212]. Ma’lumki, Bo‘ston joy nomi “gullagan”, “yashnagan” kabi ma’nolarni anglatadi. Ammo, olib borilgan izlanishlardan xulosa qilsak, qirg‘izlar takibidagi urug‘ ekanligi oydinlashdi.

Nayman qishlog‘i respublikamizning Farg‘ona viloyati Quvasoy shahri hududida joylashgan va qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasining Batken viloyati bilan chegaradosh.

Aholisi asosan qirg‘iz millati vakillaridan (99%) iborat. Qishloqda olti ko‘cha: Shinam, Qiryo‘li, Saodat, Charog‘on, Yangi xayot, Bodomzor ko‘chalari bor. Nayman qishlog‘ining aholisi 554 ta xonadon, 720 ta oila, 2666 kishini tashkil etadi (2023). Ushbu joy nomini tadqiq qilishda juda katta ish olib brogan, qishloqning katta yoshdagi vakillari orqali ma’lumot yig‘gan D.Q. Ergashev ma’lumotlaridan foydalanganimizda, u quyidagicha eslaydi. “…Qishloqning Nayman deb atalishi, menimcha shu yerda istiqomat qilayotgan urug‘, to‘plarning ko‘pchiligining ota-bobolari borib Nayman urug‘iga qo‘shilib ketishi sabab bo‘lsa kerak. Bu borada oqsoqol Qo‘ziyev Husanboy akadan (1920-2000 yillarda yashab o‘tgan) so‘raganimda, u kishi qirg‘iz ko‘p yashagan joylarni nayman deb aytishadi degan edi. Shundan so‘ng, qiziqishim ortib manbalarga suyanganimda qishlog‘imizdagi ko‘p to‘plarning ota-bobolari nayman urug‘iga borib taqalar ekan”. Nurbek Turanning “Keyit” kitobida naymanlar haqida ham so‘z yuritiladi. Qirg‘izlarning “nayman” urug‘i ichkiliklar guruhining qadimgi urug‘lardan biri hisoblanadi. Naymanlar qadimda katta mamlakat tuza olishgan. Uni afsonaviy Narqish Tayyan va Eniyat Kaanlar boshqarishgan. Naymanlarning kelib chiqishi haqida ikkita taxmin olg‘a suriladi. N.Ya. Bichurin, I.N. Berezin, V.P. Vasilev, V.V. Bartold, B.Ya. Vladimirsov, B.D. Grekov, A.Yu. Yakubovskiy , I.P. Petrushevskiy va N.P. Shastinalar naymanlarni g‘arblik mo‘g‘ullar deb hisoblashadi. Ular o‘zlarining bu taxminiga asos qilib mo‘g‘ulcha “nayman” – sakkiz, boshqacha aytganda “sakkiz urug‘ning ittifoqi” degan nomlanishga bog‘lashadi. XIX asrlarga kelib N.A. Aristov, G.Ye. Grum-Grjmay-lo, L.Ligeti, S. Murayama, X.Xovors, P.Pouxa, L.L. Viktorova, M.S. Mukanov,S.A. Amanjolovlarning taxminlari, qadimgi xitoy yozmalarida va O‘rxun-Yenisey yozuvlarida o‘rganilgan natijalarga asoslanadi. Unga ko‘ra, qirg‘izlar tagi turkiy xalq degan xulosaga kelishgan. Xitoy tarixchisi va Yuan dinastiyasi bo‘yicha mutaxasis Xan-Ju-lin naymanlar qirg‘iz urug‘larining biri deb hisoblaydi.Haqiqatda esa naymanlar “Manasda” doim qirg‘izlar bilan birga yurganligi aytiladi.

”Nayman” atalishi to‘g‘risida Jakbarali Qipchaqov(1954 yilda tug‘ilgan, mutaxasligi bo‘yicha rus tili o‘qituvchisi, ikkinchi diplomi siyosatshunoslik bo‘yicha magistr va 2000 yildan boshlab etnografiyaga qiziqib keladi. Shu sohada bir necha ishlanmalari ham bor) o‘z yozgan monografiyalarida Nuh payg‘ambarni ruschada

[1]Dala yozuvlari. Madrahimov Abdusalom (1971-yil tug‘ilgan). Quvasoy shahri, Bo‘ston mahallasi. 2026-yil.

[2]Списокъ насселеныхъ местъ Ферганской области. Скобелев. 1909. 87 с.

No‘y deb aytiladi va Nayman atamasi shu No‘y so‘zidan kelib chiqib No‘ylar(Naymanlar) degan taxmin mavjud. Aytishlaricha, ushbu hududlarga, Naymanliklar kamida 200 yil oldin kelib o‘tiroqlashgan ekan. Undan avval qishda kelib qishlab yana yaylovlarga qarab chiqib ketishgan. Ba’zi oqsoqollar o‘n ota avlodi yashab kelgan deydi . Shu soy bo‘ylarida qalin el yashab tegirmonlar, bog‘lar, masjidlar bo‘lgan.

Hozirgi kunda Naymanda yashab kelayotgan urug‘lar va to‘plar: Urkunchular, Beshnaymanlar, Bozor bollari, Qipchoqlar, Qora naymanlar, G‘idirshalar, Bo‘o‘biylar, Bo‘o‘lar, Uyg‘urlar, No‘yg‘itlar, Teyitlar, Ho‘jalar, Ko‘n naymanlar, To‘o‘lo‘slar, Cho‘mo‘qlar, Qorinlar, Bek bo‘to‘lar, Qandilar, Bo‘z to‘rg‘oylar va boshqa ko‘plab uruqlar ro‘yxatini sanab o‘tish mumkin[3].

XULOSA.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tarix bu charxpalak, chunonchi madaniyatlar charxpalagi, ya’ni davrlar, tuzumlar davomiyligida insoniyat turmush tarzi, madaniyati o‘zgarib boradi va sayqallanadi. Shu yo‘sinda biznin urug‘ va elatlarimiz ham tarixiy jarayonlarda toblandi, tarix yaratilishida ishtirok etdi hamda butun kelajakka muhrlandi. Shu muhrlangan tuzilma bugun biror huddudni anglatmoqda. Quva tumanidagi singari Quvasoy shahrida ham etnotoponimlarni, xususan boshqa toponimlar o‘rganishimizda bir qancha umumiyliklarga duch keldik. Biz o‘rgangan qishloqlar deyarli hammasi qo‘riq, o‘zlashtirilmagan yer , qamishzor bo‘lganligi, qaysidir qabila yoki urug‘ majburiy hamda ixtiyoriy ravishda ko‘chib kelib, hududni o‘zlashtirib, o‘troq hayotga o‘tganligi eng asosiylaridan hisoblanadi. Keyingi jihati qirg‘iz etnonimlari kelib joylashuvi navbatdagi omillardan biridir. Etnotoponimlarning hususiyatlarini bugungi avlodga yetkazishda , tanitishda moddiy manbalar hamda ma’naviy va yozma manbalarning o‘rni salmoqlidir. Shu asnoda yuqoridagi izlanish hamda ma’lumotlar mavzumizni yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Аҳмадалиев Ю.И. Фарғона вилояти топонимлари . – Фарғона.:“Фарғона”, 2009.

2. Ahmadaliev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik // O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona.: Poligraf Servis”, 2018.

3. Abdulahatov Nodirjon, Xo‘janazarov Husniddin. Quvasoyning qadimiy yodgorliklari va joy nomlari. – Farg‘ona.: “Classik”, 2026.

4. Qoraev S. Toponimika. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T. 2006.

5. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.

6. Суюн Қораев.Ўзбекистон вилояти топонимлари.- Тошкент: “0‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2005.

7. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

8. Охунов Н. Ўзбек топонимияси.Илмий-услубий қўлланма.- Қўқон.: 2005.

9. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika// O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: “Navro‘z”, 2017.

10. Farg‘ona joy nomlari izohli lug‘ati.- “Farg‘ona” nashriyoti, 2025.

11. T. Nafasov, V.Nafasova,“0‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug'ati” “Yangi asr avlodi”, 2007-y.

[3]Dala yozuvlari. Mamajonov Davlatjon . Quvasoy shahri, Nayman mahallasi. 2026-yil.